

Mahammadjonova Gulmira Farhodbek qizi

(Ilmiy rahbar: Z.R.Rayimberdiyeva)

Andijon davlat pedagogika instituti 3-bosqich talabasi

muhammadjonovagulmira@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek tilshunosligida ajratilgan bo'laklar masalasi va uni tilning boshqa til hodisalaridan farqlash masalalari yoritiladi.

Annotation. In this article, the issues of isolated fragments in Uzbek linguistics and their differentiation from other linguistic phenomena are covered

Kalit so'zlar: sintaksis, til, ajratilgan bo'laklar, gap bo'laklari, uyishiq bo'laklar, izohlovchi, tinish belgilari

Key words: syntax, language, hyphens, clauses, hyphens, expository, punctuation

Sintaksis- tilning grammatik qurilishida juda katta ahamiyatga ega bo'lgan, kishilik jamiyatining muomala-muloqot jarayonini amalga oshiruvchi yirik nutq birliklarini o'rganuvchi, tadqiq qiluvchi tilshunoslik bo'limi. Tilning eng birlamchi vazifasi axborot-kommunikativ vazifa ekan, bu jihatdan, sintaksis bo'limining tilshunoslikdagi ahamiyati, fandagi mavqeyi beqiyosdir. Keyingi yillarda o'zbek tilshunosligida semantic yo'nalishning kuchayib borishi bilan gapning mazmuniy tomoni, xususan, kommunikativ tuzilishiga ham alohida e'tibor berila boshlandi. Tushunchani ifodalovchi so'z birikmasi, fikr ifodalovchi gap va ma'lum bir mavzu yuzasidan nisbatan to'liq ma'lumot beruvchi matn kabi birliklar sintaksis bo'limining tadqiqot obyektlari hisoblanadi. Bulardan tashqari, sintaktik aloqa natijasida hosil bo'lgani uchun gap bo'lagi ham shu bo'limda o'rganiladi. Nutq jarayonida gap bo'lagi bilan ham mazmuniy, ham grammatik jihatdan aloqador bo'lgan ikki hodisa bor. Bularning birinchisi gap bo'laklarining bevosita uyishgan holatda kelishi, ikkinchisi ularning ajratilishidir. Tilshunoslikda ajratilgan bo'laklarga oid yangi qarashlar vujudga kelmoqda. Mazkur qarashlarga ko'ra, ajratilgan bo'laklar gapda sintaktik tuzilish emas, balki kommunikativ tuzilish birligi sifatida namoyon bo'lmoqda. Avvalo ishni gap bo'laklari qanday ehtiyoj bilan ajratiladi, nima uchun ular "ajratiladi" va nimalardan "ajratiladi" savollariga javob berishdan boshlash muvofiq. Faol nutq vaziyati davomida so'zlovchining ayrim jumalari tinglovchi uchun mavhum bo'lib qoladi va so'zlovchi buni sezgan holda, qaysi gap bo'lagining ma'nosini aniqlashtirmoqchi bo'lsa, shu gap bo'lagini ajratadi. Bu holat har ikki nutq shakli uchun ham xosdir. Ajratilgan bo'laklarni boshqa til hodisalaridan farqlash uchun ma'lum tinish belgilariga ehtiyoj seziladi. Ular shu belgilar bilan gapning boshqa barcha bo'laklaridan ajratiladi. Gap bo'laklarining barchasi: ega, kesim, aniqlovchi, to'ldiruvchi va hollar ajratilishi mumkin. Gap bo'laklari ikki xil yo'l bilan ajratilishi mumkin. 1. Izohlash yo'li bilan. Bunday ajratilgan bo'laklar o'zlari aniqlayotgan so'zdan keyin kelib, uning ma'nosini to'ldirib keladi. Qaratqich aniqlovchi va tarz holidan boshqa barcha gap bo'laklari shu usulda ajratilishi mumkin. Bugun, 30-yanvar kuni, ertalabdan

kechga qadar yomg'ir yog'di (ajratilgan payt holi). *Qo'shnimiz, Risolat opoqi, olti oy oldin Toshkentga ko'chib ketgan ekan* (ajratilgan (ega) izohlovchi). 2. Tartibni o'zgartirish yo'li bilan . Odatda sifatlovchi aniqlovchi yoki tarz holi ajratilganda ular o'z hokimidan keyin kelib, uning belgisini oddiy emas, ta'kidlab, bo'rttirib ifodalaydi. *Do'ppi tikdim, ipaklari tillodan* (ajratilgan sifatlovchi aniqlovchi). *Qo'llar ishlar- tez, mo'jizakor* (ajratilgan tarz holi). Ajratilgan bo'laklar boshqa bo'laklardan alohida to'xtam (pauza) bilan ajratilib, mantiqiy urg'u oladi. Qaysi gap bo'lagiga oidligiga ko'ra ajratilgan bo'laklarni quyidagi turlarga bo'lamiz:

1. Ajratilgan izohlovchi
2. Ajratilgan kesim
3. Ajratilgan aniqlovchi
4. Ajratilgan to'ldiruvchi
5. Ajratilgan hol

O'zidan oldin kelgan ot, olmosh, otlashgan so'zlar bilan ifodalangan egani izohlaydigan bo'lak ajratilgan izohlovchidir. *Kamina, Zulfiya nomidagi davlat mukofoti sohibasi, yozdi bu she'rlarni*. Ko'p adabiyotlarda kesimning ajratilishi haqida fikrlarni uchratmaymiz, ammo kuzatishlar kesimni ham ajratish mumkinligini ko'rsatadi. *Ahmadni bu ishga ko'ndirish oson bo'lmadi. Nazir bu ishga ko'p harakat qildi- yalindi, tiz cho'kdi, yolvordi*. Xuddi shu tarzda, quyida to'ldiruvchining ajratilishiga misollar keltiramiz:

Sizga, oliy ma'lumotli kadruga, ishonchimiz katta.

Onamni, mening jannatimni, xafa qilgandan hech qachon rozi bo'lmayman.

Ayni shu o'rinda ajratilgan bo'laklarni gapning uyushiq bo'laklaridan farqlash katta ahamiyatga ega. Yuqoridagi misollarni ko'rsak, ajratilgan bo'lak o'zidan oldingi so'z bilan ayni bir tushunchani bildiradi. So'nggi misolda onamni so'zi bilan mening jannatim so'zlari atayotgan shaxs ayni bitta. Uyushiq bo'laklar sanash ohangi bilan aytiladi va sanalayotgan bo'laklar bir tushuncha bo'lmaydi. Solishtirish uchun: *Onamni, singlimni hech kimga xafa qildirmayman*.

Yozma nutqda ajratilgan bo'laklar ko'pincha har ikki tomonidan vergul va tire tinish belgilari bilan ajratiladi. Sintaksis bo'limida ajratilgan bo'laklar uyushiq bo'laklar, undalmalar, kiritmalar bilan birgalikda sodda gapni murakkablashtiruvchi vositalar sifatida o'rganiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mahmudov N, Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. Toshkent: O'qituvchi, 1995.
2. M. Hamroyev, D. Muhamedova va b. Ona tili. Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2007.

FOYDALANILGAN SAYTLAR:

1. <https://arxiv.uz/tilshunoslik>
2. <https://youtube.com/live/bsSRPLyImAI?m4oeDUI-5FEZZ2sr>